

YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№3

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, mart.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI IQTISODIYOTDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIR ETUVCHI TIZIMLASHTIRILGAN TAHDIDLAR.....	40
Qodirov Tuyg'un Uzoqovich, Nabiyev Bexzod Shavkatovich	
SANOAT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYA VA TEKNOLOGIK MODERNIZATSIYANING O'RNI	44
Boboqulov Sanjar Bahromqulovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI BAHOLASHNING USLUBIYOTI VA UNING SOLIQ TIZIMIDA QO'LLANILISHI	49
To'xtabayev Oybek Odilovich	
YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISHDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR.....	56
Ismailov Bobir Salomovich	
TIJORAT BANKLARI INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	62
Yangiboyev F.B.	
MINTAQAVIY IQTISODIY SALOHİYATDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	68
Turayev Og'abek Kaxramonovich	
XORIJIY MAMLAKATLARDA TO'QIMACHILIK KLASSTERLARINI RIVOJLANTIRISH TAJRIBASI.....	75
Yusupova Feruza Yo'ldoshevna	
BANK XIZMATLARI SIFATINI BOSHQARISHNING INTEGRATSION VA ADAPTIV MODEL.....	83
Ibroximov Ilxomjon Shavkatjon o'g'li	
QURILISH TASHKILOTLARI FAOLIYATINING MOLİYAVIY BARQARORLIGINI EKONOMETRIK MODELLAR ASOSIDA BAHOLASH	89
Qidirniyazov Ajiniyaz Sherniyazovich	
ICHKI NAZORAT VA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMIDAGI XAVFLARNI BOSHQARISH	94
Islamova Nargiza Mirzaxidovna	
TURIZMNING MINTAQADA IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRI	104
Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSİYALARNI JALB QILISH ORQALI INVESTITSION JOZIBADORLIKNI OSHIRISHNING HOZIRGI KUNDAGI HOLATI TAHLILI	111
Begamov S.X.	
RETHINKING JOB CREATION: ONTOLOGICAL AND EPISTEMOLOGICAL FOUNDATIONS OF MACROECONOMIC EMPLOYMENT ANALYSIS.....	116
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
HUDUDIY TURIZM KLASSTERLARINI SHAKLLANTIRISH VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	125
Ro'zimova Xusnora Mirzobek qizi	
SUG'URTACHILIK VA O'ZBEKISTONDA SUG'URTA SEKTORINING HOLATI.....	129
O'runboyeva Sotima Alisher qizi	
GO'SHT VA GO'SHT MAHSULOTLARINI SANOAT USULIDA QAYTA ISHLASHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARI.....	134
Kaydarova Sitara Suranbay qizi	
KORXONALAR QIYMATINI BAHOLASH VA BOZOR BAHOSINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI.....	139
Abduraxmanov Sherzodbek Ravshanovich	
YASHIL IQTISODIYOT: EKOLOGIK BARQARORLIK VA IQTISODIY SAMARADORLIK UYG'UNLIGI.....	145
Jamalidinova Asalxon Saliyevna	
2025-YILDA O'ZBEKISTON UCHUN ENG YAXSHI 10 TA TRANSPORT TEKNOLOGIYALARI VA INNOVATSIYALARI	151
Mamasaliyeva Mukaddas Ibadullayevna, Beketov Timur Kazakbayevich	



MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN YONDASHUVLARI: AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY TIZIMLAR QIYOSIY TAHLILI	155
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
ИННОВАЦИОННО-ИНВЕСТИЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ: ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ	163
Хайдарова Ёркиной Аскар кизи	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING FISKAL VA INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI	170
Mamatova Nodira Mirzavaliyevna	
ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА И УСТОЙЧИВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ: ФОРМИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ МОДЕЛИ ПЕРЕХОДА ТЕПЛИЧНЫХ ХОЗЯЙСТВ ТАШКЕНТСКОЙ АГЛОМЕРАЦИИ НА СОЛНЕЧНЫЕ СИСТЕМЫ ЭНЕРГОСНАБЖЕНИЯ	178
Срождидинова Зарина Хайриiddиновна, Абдувалиева Зилола Абдуллаевна	
MAMLAKATIMIZDA QISHLOQ HUDUDLARIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI	186
Yuldashova Nilufar Ziyabayevna	
RIVOJLANISHDA RAQOBAT EMAS, BALKI HAMKORLIKNING USTUVORLIGI: NAZARIY VA AMALIY TAHLIL	190
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich	
IJTIMOY HIMOYA QAMROVINI KENGAYTIRISH MEKANIZMLARI VA "QAMRAB OLINMAGAN O'RTA QATLAM" MUAMMOSI	196
Bafoev Farrux Jo'raqulovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA EKOLOGIK BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH	202
Shanazarova Gulyoraxon Baxtiyarovna	
O'ZBEKISTON STARTAP EKOTIZIMIDA INVESTITSIYA JALB QILISH JARAYONINING INSTITUTSIONAL MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEKANIZMLARI	208
Xoliqova Xurshidaxon Xayotjon qizi	
INNOVATSION IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA STARTAP EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI	214
Usmanov Gafurjon Shavkatovich	
QURILISHDA ISHLAB CHIQRISH VA SIFATNI BOSHQARISH TIZIMLARINING RIVOJLANISHI	220
Buriyev Xakim Toshimovich, Usmanov Ilxom Achilovich	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION MUHITNI TAKOMILLASHTIRISHNING STRATEGIYALARI	225
Xolov Sherali Axrorboyevich	
2010-2024-YILLARDA O'ZBEKISTONDA TO'QIMACHILIKNI INVESTITSIYALASHNING EKONOMETRIK TAHLILI	229
Ashurov Shuhratbek Quddat o'g'li	
TIJORAT BANKLARI MOLIVAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING ZAMONAVIY USULLARI	233
Sherbekova Kamola Norbekovna	
AHOLI MOLIVAVIY SAVODXONLIGI DARAJASI VA UNI BAHOLASHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI	243
Abduvoxidov Akmal Abdulazizovich	
MARKAZIY BANK KURS SIYOSATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI	249
Saydullayev Nodirbek Narzullaevich	
O'ZBEKISTON MINTAQALARIDA BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISH SALOHİYATI VA MUAMMOLARI	258
Raupov Shuxrat Soyibovich	
ЭКОТУРИЗМ В УЗБЕКИСТАНЕ: СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ	264
Абидова Дилфуза Игамбердиевна, Рахматуллаева Зулайхо Хасан кизи	
DIGITAL ECONOMY AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE: BUSINESS CHANGE IN THE REGIONS	270
Abdullayev Muzaffar Abdujabbarovich	



QISHLOQ XO'JALIK MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASHDA IOT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	273
Mirzaev Dilshod Artikovich	
ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРИМЕНЕНИЯ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ СТАРТАП-ПРОЕКТОВ В ВУЗАХ УЗБЕКИСТАНА	279
Kacimova Hapri3a CabiTджановна	
YASHIL IQTISODIYOTNING NAZARIY ASOSLARI VA UNGA ILMIY YONDASHUVLAR.....	284
Ismoyilova Mahliyo Oybek qizi	
BOSHQARUVDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR (OLIIY TA'LIM MISOLIDA).....	289
Kariyeva Gulnora Abdullayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV MIJOZLARGA XIZMAT KO'RSATISHNING AMALDAGI HOLATI VA ASOSIY TENDENSIYALARI.....	295
Qurbonov Odilbek Ro'zmatovich	
O'ZBEKISTONDA SPORT FEDERATSIYALARI VA ASSOTSIATSIYALARINI SAMARALI BOSHQARISH TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISH YO'LLARI	302
Umed Farmonkulovich Radjabov	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN IQTISODIY MEKANIZMNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI VA ULARNING AMALIY AHAMIYATI.....	307
Mullayeva Mexrangiz Axtam qizi	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI (NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA).....	313
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Muradova Nazira Raximjanovna	
RAQAMLI MARKETING VA ONLAYN PLATFORMALAR ORQALI EKOTURISTIK MAJMUALARNI OMMALASHTIRISH TRENDI	318
Xolmatova Parvina Asliddin qizi	
O'ZBEKISTONDA SOLIQ MA'MURCHILIGI STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI VA ULARNI YECHIMLAR.....	323
Normurzayev Umid Xolmurzayevich	
РАЗВИТИЕ ДИСТАНЦИОННОГО БАНКОВСКОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ В ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ НА ОСНОВЕ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА КАК ФАКТОР РЕГИОНАЛЬНОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА.....	327
Бахтиёрв Худайберган Хамдам угли	
MAHALLIY BUDJETLARDA TRANSFERTLARGA QARAMLIK DARAJASINI BAHOLASH (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	335
Xudoyqulov Hamidjon Abdullayevich	
QORAQALPOG'ISTON QISHLOQ XO'JALIGIDA RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISHNI BOSHQARISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI.....	342
Tajibaev Berdax Asqarbay uli	



QORAQALPOG'ISTON QISHLOQ XO'JALIGIDA RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISHNI BOSHQARISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI

Tajibaev Berdax Asqarbay uli

Qoraqalpoq davlat universiteti

“Menejment va iqtisodiyot asoslari” kafedrası assistenti, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligida resurslardan samarali foydalanishni boshqarishning innovatsion yondashuvlari tahlil qilingan. Mintaqaning tabiiy-iqlim sharoitlari, Orol dengizi inqirozining oqibatlari, suv taqchilligi hamda tuproq sho'rlanishi kabi muammolar fonida resurslardan samarali foydalanishni oshirishning zamonaviy usullari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, raqamli texnologiyalar, aniq dehqonchilik, suv tejovchi texnologiyalar va institutsional islohotlarning qishloq xo'jaligida resurslardan foydalanish samaradorligiga ta'siri ilmiy asosda tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Qoraqalpog'iston, qishloq xo'jaligi, resurs samaradorligi, innovatsion boshqaruv, suv tejovchi texnologiyalar, raqamli texnologiyalar, tuproq sho'rlanishi.

Abstract. This article analyzes innovative approaches to managing the efficient use of resources in agriculture of the Republic of Karakalpakstan. Considering the region's natural and climatic conditions, the consequences of the Aral Sea crisis, water scarcity, and soil salinization, modern methods for improving resource efficiency are examined. In addition, the impact of digital technologies, precision agriculture, water-saving technologies, and institutional reforms on the efficiency of resource utilization in agriculture is scientifically analyzed.

Key words: Karakalpakstan, agriculture, resource efficiency, innovative management, water-saving technologies, digital technologies, soil salinization.

Аннотация. В данной статье проанализированы инновационные подходы к управлению эффективным использованием ресурсов в сельском хозяйстве Республики Каракалпакстан. С учётом природно-климатических условий региона, последствий кризиса Аральского моря, дефицита водных ресурсов и засоления почв рассмотрены современные методы повышения эффективности использования ресурсов. Также на научной основе проанализировано влияние цифровых технологий, точного земледелия, водосберегающих технологий и институциональных реформ на эффективность использования ресурсов в сельском хозяйстве.

Ключевые слова: Каракалпакстан, сельское хозяйство, эффективность использования ресурсов, инновационное управление, водосберегающие технологии, цифровые технологии, засоление почв.

KIRISH

Qoraqalpog'iston Respublikasi O'zbekiston Respublikasining shimoliy-g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, uning iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi muhim o'rin tutadi. 2014–2023-yillar davomida mintaqaning qishloq xo'jaligi sektori barqaror o'sishni namoyish etib, o'rtacha o'sish koeffitsiyenti 1,20 ni tashkil etgan [1]. 2023-yilda ushbu sektor hajmi 16 390,8 mlrd so'mga yetgan [1]. Biroq mintaqaning qurg'oqchil iqlimi, suv resurslarining cheklanganligi va Orol dengizi inqirozining oqibatlari resurslardan samarali foydalanish masalasini dolzarb muammoga aylantiradi.

Orol dengizining qurib qolishi Qoraqalpog'istonga ayniqsa og'ir ta'sir ko'rsatgan. 2017-yilga kelib Mo'ynoq tumanida yerlarning sho'rlanish darajasi 96 foizga yetgan, respublika bo'ylab bu ko'rsatkich 80 foizdan oshgan [2]. Amudaryo daryosi mintaqaning asosiy suv manbayi hisoblanadi, lekin so'nggi yillarda daryo suvi hajmining kamayishi va iqlim o'zgarishlari suv taqchilligini kuchaytirgan [3].

Tadqiqotning maqsadi – Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligida resurslardan samarali foydalanishni boshqarishning innovatsion yondashuvlarini ilmiy asoslash va ularning samaradorligini baholashdir.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qishloq xo'jaligida resurslardan samarali foydalanish masalasi iqtisodiy rivojlanish, oziq-ovqat xavfsizligi va ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va innovatsion boshqaruv mexanizmlarini shakllantirish zarurligini ko'rsatadi. Ayniqsa, suv tanqisligi, tuproq degradatsiyasi va iqlim o'zgarishlari sharoitida agrar tarmoqni modernizatsiya qilish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish masalalari dolzarb ilmiy muammolardan biri sifatida ko'rib chiqilmoqda.

Qoraqalpog'iston Respublikasining agrar sektori rivojlanishining iqtisodiy jihatlari S.K. Babanazarova tomonidan keng tahlil qilingan. Muallif mintaqaning iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari hamda agro-sanoat majmuasining holatini o'rganib, qishloq xo'jaligi hudud iqtisodiyotida yetakchi o'rin egallashini ta'kidlaydi. Tadqiqotda agrar ishlab chiqarishning barqaror o'sishi bilan birga suv resurslarining cheklanganligi, yerlarning sho'rlanishi va ekologik muammolar resurslardan samarali foydalanish tizimini takomillashtirishni talab qilishi qayd etiladi. Muallifning fikricha, qishloq xo'jaligida innovatsion boshqaruv usullarini joriy etish mintaqaning agrar salohiyatini oshirishning muhim omillaridan biridir.

Mintaqaning suv resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi A.T. Orazimbetova tadqiqotlarida batafsil o'rganilgan. Muallif Qoraqalpog'iston Respublikasida suv ta'minoti masalalari, irrigatsiya tizimining holati va suv resurslaridan foydalanish samaradorligini tahlil qilib, qishloq xo'jaligida suvni tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish zarurligini asoslaydi. Tadqiqot natijalari suv resurslarining cheklanganligi sharoitida zamonaviy irrigatsiya texnologiyalarini qo'llash ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va agrar ishlab chiqarishni boshqarishning nazariy asoslari A.A. Abduganiyev tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy ishlarda keng yoritilgan. Muallif qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy mexanizmlari, resurslardan samarali foydalanish va agrar boshqaruv tizimining rivojlanish yo'nalishlarini tahlil qiladi. Tadqiqotda yer, suv, mehnat va kapital resurslaridan samarali foydalanish qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biri ekanligi ta'kidlanadi.

O'zbekiston agrar rivojlanishining institutsional va iqtisodiy jihatlari F. Nazarova tomonidan ham tadqiq etilgan. Muallif agrar sektorni modernizatsiya qilish, institutsional islohotlarni amalga oshirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish mumkinligini asoslab beradi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, agrar siyosatning samarali amalga oshirilishi resurslardan oqilona foydalanish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Qishloq xo'jaligida strategik boshqaruv masalalari xalqaro ilmiy adabiyotlarda ham keng o'rganilgan. I. Ansoff strategik boshqaruv nazariyasida tashkilotlarning uzoq muddatli rivojlanishi resurslardan samarali foydalanish va strategik rejalashtirish tizimining to'g'ri tashkil etilishiga bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Muallif strategik boshqaruv jarayonida tashqi muhitni tahlil qilish, resurslarni optimallashtirish va innovatsion rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish muhimligini asoslab beradi. Shuningdek, M. Porter raqobat strategiyasi konsepsiyasida korxonalar va iqtisodiy tarmoqlarning raqobatbardoshligini oshirishda samarali boshqaruv, innovatsiyalar va resurslardan optimal foydalanish muhim omil ekanligini ko'rsatadi. Porterning fikricha, ishlab chiqarish jarayonlarining samaradorligi va innovatsion texnologiyalarni joriy etish agrar sektorning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda qishloq xo'jaligida raqamli texnologiyalar va zamonaviy texnika vositalarini joriy etish masalasi alohida ilmiy yo'nalish sifatida rivojlanmoqda. De Clercq, Vats va Biel tadqiqotlarida "Agriculture 4.0" konsepsiyasi asosida qishloq xo'jaligini raqamlashtirish, sun'iy intellekt, sensorlar, dronlar va katta ma'lumotlar texnologiyalaridan foydalanish ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini berishi ko'rsatib berilgan. Mualliflar zamonaviy texnologiyalar qishloq xo'jaligida resurslardan foydalanishni optimallashtirish va ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilishini ta'kidlaydilar.

Shu bilan birga, Jahon banki tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda aniq dehqonchilik (precision agriculture) texnologiyalarining qishloq xo'jaligida resurslardan samarali foydalanishdagi ahamiyati alohida qayd etilgan. Mazkur texnologiyalar yordamida ekin maydonlarining holatini monitoring qilish, suv va o'g'itlardan foydalanishni optimallashtirish hamda hosildorlikni oshirish imkoniyatlari yaratiladi. Bu esa qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Qoraqalpog'iston sharoitida suv tejovchi texnologiyalarning samaradorligi S.E. Kurbanbaev, Sh.A. Usmanov va E.B. Batyrbaev tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda o'rganilgan. Mualliflar sholi yetishtirish jarayonida suv tejovchi texnologiyalarni qo'llash suv sarfini kamaytirish bilan birga hosildorlikni oshirishga ham xizmat qilishini ilmiy jihatdan asoslab berganlar. Bu esa suv resurslaridan samarali foydalanish qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligini oshirishga bevosita ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi.

Tuproq sho'rlanishi muammosi ham Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi uchun muhim ekologik omillardan biridir. M. Konyushkova tadqiqotlarida masofadan zondlash ma'lumotlari asosida tuproq sho'rlanishini monitoring qilish imkoniyatlari tahlil qilingan. Muallifning fikricha, sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari va geoinformatsion



tizimlardan foydalanish tuproq degradatsiyasini aniqlash va qishloq xo'jaligi yerlaridan samarali foydalanishni boshqarishda muhim ahamiyatga ega.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligini raqamlashtirish jarayonlari T.P. Jiemuratov tomonidan o'rganilgan. Tadqiqotda agrar tarmoqqa axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, elektron boshqaruv tizimlarini rivojlantirish hamda raqamli platformalardan foydalanish qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini oshirishga xizmat qilishi qayd etiladi. Shuningdek, D.A. To'ranov qishloq xo'jaligida innovatsion texnika va masofadan boshqarish texnologiyalarini qo'llash ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, resurs sarfini kamaytirish va hosildorlikni oshirish imkonini berishini ta'kidlaydi.

Shunday qilib, mavjud ilmiy tadqiqotlar qishloq xo'jaligida resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashda innovatsion texnologiyalar, strategik boshqaruv, raqamli transformatsiya va institutsional islohotlar muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitida suv resurslarining cheklanganligi, tuproq sho'rlanishi va ekologik muammolar resurslardan foydalanishni boshqarishda yangi innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishni talab qiladi. Mazkur tadqiqot ushbu muammolarni ilmiy jihatdan tahlil qilish va qishloq xo'jaligida resurslardan samarali foydalanishni boshqarishning innovatsion mexanizmlarini aniqlashga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda statistik tahlil, gorizontal va vertikal tahlil, solishtirma tahlil usullari qo'llanilgan. Ma'lumotlar O'zbekiston Statistika qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Qishloq xo'jaligi vazirligi va UNDP hisobotlaridan olingan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qoraqalpog'iston Respublikasi shartli ravishda janubiy va shimoliy iqtisodiy mintaqalarga bo'linadi. Janubiy mintaq (14,64 ming kv. km) hududning 8,9 foizini tashkil etsa-da, aholining 69,5 foizi, qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining 67,7 foizini ta'minlaydi. Shimoliy mintaq hududning 91,1 foizini egallasa-da, asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha janubdan 2,2 baravar orqada qoladi [1].

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, import qilingan oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish koeffitsiyenti (1,32) eksport ko'rsatkichidan (1,06) sezilarli yuqori. Bu qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini kengaytirish zaruratini ko'rsatadi (1-jadval) [1].

1-jadval. Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligining asosiy ko'rsatkichlari [1]

Ko'rsatkich	2014-yil	2018-yil	2021-yil	2023-yil
YalM (mlrd so'm)	5 433,8	18 761,0	29 738,2	39 430,3
Qishloq xo'jaligi (mlrd so'm)	2 659,3	6 995,5	12 340,9	16 390,8
Qishloq xo'jaligida bandlar (ming kishi)	102,6	155,5	137,5	157,6
Eksport (mln AQSh doll.)	–	30 747,7	47 456,5	42 068,7
Import (mln AQSh doll.)	–	11 521,5	29 733,4	42 223,6

Mintaqadagi asosiy muammolar: birinchidan, suv taqchilligi – Qoraqalpog'iston eng qurg'oqchil hudud bo'lib, iqlim o'zgarishi va ichki irrigatsiya tarmog'ining eskirishi sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yomonlashtirgan [9]; ikkinchidan, tuproq sho'rlanishi – Xo'jayli tumanida 2019–2023-yillar oralig'ida sho'rlanmagan yerlar maydoni keskin qisqargan, og'ir va juda og'ir sho'rlangan yerlar maydoni sezilarli oshgan [10].

Suv resurslaridan samarali foydalanish Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi uchun eng muhim masala hisoblanadi. Prezidentning "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish" to'g'risidagi Farmoni (2019-yil) suv tejavchi texnologiyalarni keng joriy etish uchun huquqiy asos yaratgan [9].

Tomchilatib sug'orish texnologiyasi eng samarali yondashuvlardan biri bo'lib, Nukus tumani tajribalarida suv sarfini 50 foizgacha kamaytirishi isbotlangan [11]. S. Kurbanbaev va boshqalar tomonidan Qoraqalpog'iston sharoitida sholi yetishtirishda suv tejavchi texnologiyalarning optimal sug'orish rejimlari aniqlangan [12].

2026-yildan boshlab O'zbekistonda tomchilatib sug'orish yordamida sholi yetishtirish loyihasi kengaytirilmoqda, Qoraqalpog'istonda kamida 10 gektar tajriba maydoni tashkil etiladi [11]. Janubiy Koreya (KOPIA markazi) bilan hamkorlikda 2025–2028-yillarda qurg'oqchilikka chidamli yangi sholi navlari markerli seleksiya usulida ishlab chiqiladi [11].

UNDP va Moslashuv Fondi hamkorligida Qoraqalpog'istonning 5 shimoliy tumanida 564 issiqxona qurilgan, 2000 dan ortiq kishi o'qitilgan [13]. 630 ta xonadon xo'jaligiga gravitatsion tomchilatib sug'orish tizimlari berilgan



[13]. Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimiga investitsiyalar 2014-yildagi 60,2 mlrd so'mdan 2023-yilda 534,5 mlrd so'mga – 8,9 baravar oshgan [1].

Qishloq xo'jaligini raqamlashtirish resurslardan samarali foydalanishning yangi bosqichini ochmoqda. Prezidentning "Qishloq xo'jaligi sohasida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish" to'g'risidagi qarori asosiy yo'nalishlarni belgilagan: qishloq xo'jaligi yerlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish, issiqxonalarda intellektual texnologiyalar, chorvachilikda robotlashtirilgan texnologiyalar [14].

Aniq dehqonchilik texnologiyalari GPS, GIS, masofadan zondlash, dronlar va sensorlar yordamida yer maydonlarini real vaqtda monitoring qilish imkonini beradi [15]. Jahon Banki ma'lumotlariga ko'ra, bu texnologiyalar o'g'it va suv sarfini 15–25 foizga kamaytirishi, hosildorlikni 10–20 foizga oshirishi mumkin [16].

GIS texnologiyalari tuproq sho'rlanishini monitoring qilishda muhim vosita hisoblanadi. Nukus tumanida Landsat sun'iy yo'ldoshi ma'lumotlari asosida sug'oriladigan yerlarning tuz holati dinamikasi tahlil qilingan [17]. "Raqamli qishloq xo'jaligi" dasturi doirasida 500 dan ortiq dron joriy etilgan, natijada suv sarfi 35–50 foiz, kimyoviy moddalar 40–90 foizgacha tejalgan [18].

O'zbekistonda qishloq xo'jaligini boshqarish tizimida muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. 2024-yil dekabrda qarorga ko'ra, Qoraqalpog'iston Vazirlar Kengashi tuzilmasiga qishloq va suv xo'jaligi bo'yicha o'rinbosar lavozimi kiritilgan [19]. Bu yagona integratsiyalashgan boshqaruv tizimini yaratishga qaratilgan.

UNDP qo'llab-quvvatlashida tashkil etilgan 10 ta yaylov kooperativiga 34 964 gektar yaylov ajratilgan, ular 8 198 oilaga xizmat qilmoqda [20]. Bu kooperativlar degradatsiyaga uchragan yerlarni tiklash va chorvachilikni rivojlantirish uchun samarali boshqaruv shakli sifatida o'zini ko'rsatmoqda.

AKIS kontseptsiyasi doirasida Qoraqalpog'iston agroxizmatlar markazi ta'lim, ilm-fan va ishlab chiqarishning integratsiyasini ta'minlash, raqamli texnologiyalarni joriy etish vazifalari bilan faoliyat yuritmoqda [21].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligida resurslardan samarali foydalanishni boshqarish kompleks innovatsion yondashuvlarni talab etadi. Mintaqada qishloq xo'jaligi sektori barqaror o'sishni namoyish etgan (o'rtacha koeffitsiyent – 1,20), biroq suv taqchilligi, tuproq sho'rlanishi va oziq-ovqat importiga bog'liqlik jiddiy muammolar bo'lib qolmoqda.

Asosiy tavsiyalar quyidagilardan iborat:

1. Suv resurslari boshqaruvida innovatsiyalar – tomchilatib sug'orish texnologiyalarini keng joriy etish orqali suv sarfini 35–50 foizga kamaytirish; irrigatsiya tizimlarini modernizatsiya qilish.

2. Raqamli transformatsiya – dronlar, sensorlar, GIS texnologiyalari va sun'iy intellekt asosida agroteknika qarorlarni avtomatlashtirish; hosildorlikni 10–20 foizga oshirish.

3. Ekin tuzilmasini diversifikatsiya qilish – yuqori daromadli meva-sabzavot ekinlari ulushini oshirish (uzum yetishtirish paxtaga nisbatan 7 baravar ko'p daromad beradi [1]).

4. Tuproq sho'rlanishiga qarshi kurash – GIS asosida monitoring tizimini yaratish, zamonaviy sug'orish texnologiyalari orqali tuproq sharoitlarini yaxshilash.

5. Institutsional rivojlantirish – klaster modelini takomillashtirish, agrologistika infratuzilmasini rivojlantirish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kuchaytirish.

Ushbu innovatsion yondashuvlarning kompleks qo'llanilishi Qoraqalpog'iston agrosanoat majmuasining barqaror rivojlanishi, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va aholining farovonligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Babanazarova S.K. Analysis of the Development Indicators of the Economy and Agro-Industrial Complex of the Republic of Karakalpakstan // JEFMS. – 2025. – Vol. 8, Issue 08. – P. 5133–5140.
2. Orazimbetova A.T. Qoraqalpog'iston respublikasining suv bilan taminlanganligi // Academia One. – 2025. – Vol. 3, Issue 2. – P. 6–12.
3. Ansoff I. Strategic Management. – M.: Ekonomika, 1989. – 519 p.
4. Porter M. Competition / Translated from English. – M.: Williams, 2005. – 608 p.
5. De Clercq M., Vats A., Biel A. Agriculture 4.0: The Future of Farming Technology. – 2018.
6. Abduganiyev A.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti (darslik). – T.: TDIU, 2006. – 302 b.
7. Nazarova F. O'zbekiston agrar rivojlanishi. – Doktorlik dissertatsiyasi. – T.: 261 b.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5742-son Farmoni // <https://lex.uz/acts/-4378526>.
9. Mapping and Spatial Analysis of Soil Salinity Based on GIS // Scientific Journal of Fergana State University. – 2025. – Vol. 31(4).
10. Uzbekistan to scale up water-saving rice farming with drip irrigation // Kun.uz. – 2025.07.09.
11. Kurbanbaev S.E., Usmanov Sh.A., Batyrbaev E.B. The Effect of Water-Saving Technologies on Rice in Karakalpakstan // IJRASET. – 2022.
12. Climate change adaptation measures ensure food security in Karakalpakstan // UNDP Uzbekistan. – 2020.



13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17.12.2020 yildagi "O'zbekiston Respublikasi agrosanoat majmui va qishloq xo'jaligida raqamlashtirish tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 794-son qarori // <https://lex.uz/uz/docs/-5179198>.
14. Jiemuratov T.P. O'zbekistonda qishloq xo'jaligini raqamlashtirish // Innovations in Science and Technologies. – 2025. – 3-son.
15. World Bank. Precision Agriculture: Data-Driven Farming. – 2021.
16. Konyushkova M. Soil salinization monitoring using remote sensing data in Karakalpakstan. – 2019.
17. To'ranov D.A. Qishloq xo'jaligida innovatsion texnika va masofadan boshqarish texnologiyalari // Ilm-fan taraqqiyoti. – 2025. – 12-to'plam, 2-son.
18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 02.12.2024 yildagi "Qishloq xo'jaligi sohasida davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-413-son qarori // <https://lex.uz/docs/-7244818>
19. Better health, employment and land-use in Karakalpakstan // UNDP Uzbekistan. – 2020.
20. Qoraqalpog'iston Respublikasi agroxiizmatlar markazi. – <https://akiskr.uz>.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>